

guruhda merkazolil berilgan hayvonlar guruhga nisbatan 9,2%ga kamayib yaxshilandı.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Xaydarova F.A.” Yangi O‘zbekiston” Buqoq qanday kasallik? 9- avgust 2021 3-4 betlar.
2. Ильясов А.С., Умаркулова Г.А. Морфофункциональное состояние клеточных структур надпочечников при экспериментальном тиреотоксикозе крыс самок. Фундаментальная и клиническая медицина 2023 №1/1. С.218-223.
3. Sandro La Vignera and Roberto Vita Thyroid dysfunction and semen quality International Journal of Immunopathology and Pharmacology , Volume 32, March-December 2018 The Author(s) 2018
<https://doi.org/10.1177/2058738418775241>
4. Agarwal A, Baskaran S, Parekh N, Cho CL, Henkel R, Vij S, et al. Male infertility. Lancet (2021) 397(10271): 319–33. doi: 10.1016/s0140-6736(20)32667-2
5. Crisóstomo L, Alves MG, Gorga A, Sousa M, Riera MF, Galardo MN, et al. Molecular mechanisms and signaling pathways involved in feeding spermatogenesis by Sertoli cells. Methods Mol Biol (Clifton NJ) (2018) 1748:129-55. doi: 10.1007/978-1-4939-7698-0_11.

BOLALAR SAYOHATLARINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY MEXANIZMLARI

Xaydarova Shaxlo Narzullayevna
O‘zbekiston. Navoiy innovatsion universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni sayohatlarga olib chiqishda, ularni jismoniy, umumiyligi, maxsus tayyorgarliklari jarayonida kerakli bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari haqida ilmiy mushohada yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sayohat, turizm, tog‘ turizmi, alpinism, g‘or turizmi, speologiya, suv turizmi, dayving, sport turizmi, avtoturizm, muzey, turizm menejmenti, tarixiy yodgorlik, topografik karta.

ОСНОВНЫЕ МЕХАНИЗМЫ ОРГАНИЗАЦИИ ДЕТСКИХ ТУРОВ

Аннотация: В данной статье проводится научное наблюдение за приобретением детьми необходимых знаний, умений и навыков в процессе физической, общей и специальной подготовки.

Ключевые слова: путешествие, туризм, горный туризм, альпинизм, пещерный туризм, спелеология, водный туризм, дайвинг, спортивный туризм, автотуризм, музей, туристический менеджмент, исторический памятник, топографическая карта.

MAIN MECHANISMS OF ORGANIZING CHILDREN'S TOURS

Abstract: In this article, there is a scientific observation of children's acquisition of necessary knowledge, skills, and abilities in the process of physical, general, and special training.

Key words: travel, tourism, mountain tourism, mountaineering, cave tourism, speleology, water tourism, diving, sports tourism, auto tourism, museum, tourism management, historical monument, topographic map.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlari va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Bu jarayon turli omillar va shart-sharoitlar hisobiga ta'minlanadi.

Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir. Bu esa bugungi kunda respublikamizda turizm sohasini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'lib hisoblanadi. Chunki, O'zbekiston Respublikasi Butunjahon turizm tashkiloti tomonidan belgilangan me'yoriy hujjatlar va tegishli qonunlar asosida o'zining turizm menejmentini tashkil qilmoqda.

2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sod "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining 1-ilovasi "2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiysi"da mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Chunonchi unda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham alohida dasturlar ishlab chiqish belgilab qo'yilgan [2].

Bugungi kunda yosh avlodni jismoniy barkamol va ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash vositalaridan biri sifatida ichki turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib bunda turizm quyidagi elementlardan iborat:

1. Bir kunlik va ko'p kunlik safarlarga bo'linadi. (Tabiat qo'yniga-qir adirlar, soy, daryo, ko'l va dengizlar sohillariga, o'rmonzorlarga safarlar)

2. Tog' turizmi-alpinizm. G'or turizmi-speologiya. Maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan sayohatchilarining tog' cho'qqilarini egallash hamda g'orlarni o'rganish bo'yicha sayohatlari.

3. Suv turizmi-dayving. Suv havzalariga maxsus moslamalarda qayiq, yaxta, koryaki, sollarda sayohatga chiqish, suv osti o'simliklar va hayvonotlari dunyosini o'rganish.

4. Avtoturizm- texnik vositalar yordamida safarlarga chiqish [3].

Ta’lim muassasalarida o’tkaziladigan turizm mashg‘ulotlari bolalar bilan tabiat qo‘yniga safarlar hamda shahar yoki qishloq madaniyat markazlari, muzey va tarixiy yodgorliklar, istirohat bog‘lari, cho‘milish havzalariga saylar shakllarida bo‘ladi [6]. Safar mashg‘ulotlari avvalida safar yo‘nalishlari belgilanadi. Safarga chiqish muddati, yo‘nalishi, davomiyligi, safar ishtirokchilari haqida mahalliy yashash joylarining rahbariyatlari, ichki ishlar va qutqaruv bo‘linma boshqarmalariga yozma bildirgi beriladi. Safarga chiqadigan guruhlarning ishtirokchilari saralanadi. Guruhlar 3-15 kishilik bo‘lishi mumkin. Sayohatchilar 2-5 guruhdan iborat bo‘ladi. Ularga o‘qituvchi va murabbiylardan rahbarlar tayinlanadi. Sayohatchilarning safardagi mas’uliyati belgilanadi. Safarlarga oshpaz, shifokor, qutqaruv ishlari bo‘yicha mutaxassislar jalb etiladi. Xo‘jalik qurollari, chodirlar, tunash jihozlari, ovqat tayyorlash jihozlari, qutqaruv anjomlari tayyorlanadi.

Turizm mashg‘ulotlari o’tkazish va sayohatlarga chiqishda safar guruhlarini tashkil etish va vazifalarini belgilashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi.

- Sayohatlar maqsadi va vazifasi, safarlar yo‘nalishi belgilanadi. Bunda bolalarning yoshi, jismoniy tayyorgarliklari hisobga olinadi.
- Safar yo‘nalishlari qir-adirlarga, soy, daryo, ko‘l va dengizlar sohillariga, o‘rmonzorlarga belgilanadi va topografik kartasi tayyorlanadi.
- Tog‘ sayohatlari-alpinizm va suv havzalari, dengizlarga safarlarga chiqish hamda texnik vositalarda safar qilish maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan sayohatchilarga ruxsat beriladi.
- Ommaviy sayohatlar muddati bahor, yoz va erta kuz oylariga belgilanadi.
- Qishda va tabiat hodisalar ko‘p sodir bo‘ladigan mavsumda sayohatlarga chiqish maxsus tayyorgarlik ko‘rilgan guruhlarga ruxsat beriladi.
- Sayohat davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy ofatlar, jarohatlanishlar kabi salbiy hodisalarda qutqaruv choralar ko‘rish, birinchi tibbiy yordam vositalarini tayyorlash.
- Safar guruhlarida sayohatchilarning mas’uliyatini taqsimlash, yo‘lboshlovchi, qator oxiridagi harakatlanuvchi, oshpaz va shifokor yordamchilari, xo‘jalik jihozlari uchun mas’ul, ommaviy tadbirlar tashkil etuvchilar belgilanadi.
- Safar uchun zaruriy jihozlarni tayyorlash: safar kiyimlari, bosh kiyim va moyabzal mavsum hamda safar yo‘nalishi xususiyatiga muvofiq tanlanadi.
- Ryuzaklar sayohatchilar yoshi, jismoniy tayyorgarligiga muvofiq tanlanadi, suv o’tkazmaydigan, ko‘p cho‘ntaklardan iborat bo‘lgan, ochib, yopish qulay bo‘lishi kerak.
- Qo‘sishimcha kiyimlar, gigiyenik vositalar, yuvinish jihozlari, sochiqlar, ovqatlanish jihozlari, birinchi tibbiy yordam vositalari, igna, ip, yozuv qurollari, fotoapparat, adabiyotlar, durbin, fonar va boshqalarni tayyorlash.
- Safar chodirlari, dam olish uchun gilam-tushaklarni tayyorlash, xo‘jalik qurollari, oziq-ovqat mahsulotlarini, ommaviy tadbirlar uchun jihozlar olish.
- Aloqa vositalari tayyorlash va ulardan foydalanish uslublarini egallash [5].

Turizm mashg‘ulotlariga bolalarni jalb etishda ular organizmini tibbiy nazoratdan o’tkazish kerak. Shahar va qishloq madaniyat markazlariga, muzeylar

va tarixiy yodgorliklarga, istirohat bog‘lariga, cho‘milish havzalariga sayrlarga barcha yoshdagi bolalarni jalb etish mumkin.

Sayohatlarga umumiy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida safar jihozlarini tayyorlash, kiyimlar va poyabzal tanlash, to‘rvalarni, chodirlarni tayyorlash, turizm va sayohatlar to‘g‘risida nazariy bilimlarni shakllantirish, sayohat va safar joylari hayvonot va o‘simplik dunyosi, milliy meroslar, tarixiy yodgorliklar haqida kino va videofilmlar tomosha qilish, Vatan va uning tarixi haqida, mashhur kishilar, buyuk allomalar haqida kechalar, tajribali sayohatchilar, ustoz-murabbiylar bilan uchrashuvlar ushtirish, yosh bolalarni sayohat shakllariga o‘rgatish, axloqiy sifatlar, do‘stlik, birodarlik, jamoatchilik, mardlik, tashkilotchilik, odillik, halollik kabi jihatlar shakllantiriladi [1]. Sayohatlarga tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida sayohatchilar hayotiy zarur bo‘lgan yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, oshib o‘tish, osilish, tayanish, sudralish, emaklash, uloqtirish, surish, ko‘tarish, suzish, cho‘milish, suvlarni kechib o‘tish, sol va qayqlarda harakatlanish kabi harakatlarni o‘rganadilar. Ko‘p kunlik safarlarga jismoniy va maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘smir bolalar jalb etiladi. Sayohatlarga chiqish bir necha tayyorgarlik mashg‘ulotlaridan so‘ng amalga oshirilishi kerak.

Safar yo‘nalishi, davomiyligi va o‘tkazish vaqtin, sayohatchilar umumiy va maxsus tayyorgarligiga, shuningdek, ob-havo va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda tanlanishi kerak. Bir xil yo‘nalishdagi sayohatga muntazam chiqish shart emas. Safar davomida har bir tadbir avvali va yakunida sayohatchilarni yo‘qlama qilishni tashkil etish kerak. Tunash joylariga o‘rmon joylarining chekkasi, daraxtlar oz joylari, qir-adirlarning shamoldan pana joylari, qoyalardan uzoq, tosh va tuproq ko‘chishi xavfi yo‘q, suv havzalaridan kamida 50 metr uzoqlikda bo‘lishi, hayvonlar inidan, avtomobil trassalaridan, sanoat korxonalaridan, elektr stansiyalaridan uzoq bo‘lishini ham hisobga olish kerak. Tunash joylari quruq shox-shabbalardan, tosh va kesaklardan tozalaniladi. Belgi yoki bayroqlar bilan chegaralanadi. Bir kishilik, ikki kishilik va ko‘p kishilik chodirlarni o‘rnatish uchun joy tanlash va tayyorlash hamda chodirlarni tikishda qoidalarga rioya qilinadi. Chodirlar shamol yo‘nalishiga qarshi qilib o‘rnatiladi. Suhbat qilib o‘tirish, gulxan yoqish joylari tanlanadi [4]. Ommaviy ovqat tayyorlash uchun yoki mustaqil gulxan yoqishda texnik□xavfsizlik qoidalarga rioya qilish zarur. Bunda gulxan serdaraxt joylarda bo‘lmasligi, o‘choqlar tosh devorlar bilan o‘ralgan bo‘lishi lozim. Gulxan uchun uzoq yonadigan yog‘li yog‘ochlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Daraxtlarni kesish, o‘zboshimchalik bilan o‘tinlar tayyorlash ta‘qilanganadi. Gulxan cho‘g‘lari o‘chirib tashlanishi, kollar ko‘milishi kerak. Gulxanga bolalarni yaqinlashtirmaslik hamda tez alangalanuvchi moddalarni gulxanlardan uzoqroqda tutish, gulxan yoquvchi tayinlash, sovuq mavsumda isinishda ehtiyyot choralarini ko‘rish kerak. Chodirlarda tungi dam olishda olov siz yoritgichlardan foydalanish lozim. Uxlash qoplaridan to‘g‘ri foydalanish, ularni doimo toza va quruq saqlash kerak. Tunash vaqtlarida navbatchi guruhi tayinlash kerak. Sayohatchilarning kechki va ertalabki yo‘qlama qilishni joriy qilish amalga oshiriladi. Ko‘p kunlik safarlarga chiqish uchun sayohatchilar guruhi maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lish kerak. Murakkab yo‘nalishdagi safarlar davomida,

tabiiy ofatlar natijasida ko‘plab jarohatlanishlar sodir bo‘lishi mumkin. Bunday jarohatlanishlar aksariyati tayanch harakat apparati, muskul tizimi hamda bosh miya jarohatlari bo‘ladi. Bunda muskul tizimi lat yeyishi, suyakning ochiq va yopiq sinishi, bosh miyaning jarohatlanishi, yumshoq to‘qimalarning ochiq jarohatlari bo‘lishi mumkin. Shuningdek, quyosh va issiq urishi, sovuq yeyish, hushdan ketish, nafas olish va yurak urishining bexos to‘xtashi, zaharli o‘simliklar va mevalar iste’mol qilganda, zaharli hashoratlar, ilon va yirtqich hayvonlar hujumida, suvda va ko‘chkida cho‘kkanda, qor ostida qolganda, yashin urganda, kuyganda jarohatlanish va zaharlanish mumkin [4]. Sayohatchilar shaxsiy gigiyena va jamoat gigiyena talablariga rioya qilishlari, o‘z vaqtida dam olishlari va ovqatlanishlari zarur. O‘simliklar va hayvonot dunyosiga, ekologiyaga zarar yetkazmaslik, ruxsatsiz ov qilmaslik, o‘simliklarni nazoratsiz iste’mol qilmaslik kerak. Aloqa vositalari yordamida sayohatchilar kayfiyati, tadbirlar, o‘tkazilgan masofa haqida doimo ma’lumot berib borish kerak [5].

Xulosa qilib aytganda, bolalarni sayohatlarga olib chiqishda ularning jismoniy sog‘lom ekanligiga, maxsus tayyorgarliklar(yurish, yugurish, sakrash, tirmashib chiqish, oshib o‘tish, osilish, tayanish, sudralish, emaklash, uloqtirish, surish, ko‘tarish, suzish, cho‘milish)ga tayyorgarlik darajasiga e’tibor qaratish lozim. Tashkil etilgan mazmunli sayohatlar orqali bolalarda axloqiy sifatlar, do‘stlik, birodarlik, jamoatchilik, mardlik, tashkilotchilik, odillik, halollik kabi jihatlari shakllantiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagи “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-sonli “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PQ-4095-son “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.
4. Александрова А.Ю. «Международный туризм». Москва, 2010 Кнорус.,
5. Вавилова Е.В. Основы международного туризма. Учебное пособие. Москва, 2005.
6. Nazarova G.G. va boshqalar. Turizm huquqi-Toshkent. Talqin-2003.
7. Haydarova Shahlo Narzullayevna. Mehribonlik uyi bolalarinining ijtimoiy hayotga moslashuv omillari. “UZACADEMIA”SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. 30-dekabr, 2020-yil. 3-qism. 163-165.
8. Ҳайдарова Шахло Нарзуллаевна. Мехрибонлик уйи тарбияланувчиларини оиласвий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик асослари. «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. VOLUME #1, ISSUE #1, 2020/XI. 149-154.
9. Xaydarova Shaxlo Narzullaevna, (2021). Pedagogical Approach To The Preparation The Children Of The Orphanage For Family Life. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(02), 23-27.

10. Хайдарова Ш.Н. Педагогический подход к подготовке воспитанников детского дома к семейной жизни. Colloquium-journal №8 (95), 2021. Czesc 2. (Warszawa, Polska).
11. Ibraimov Xolboy Ibragimovich, Khaydarova Shakhlo Narzullaevna, Organizational pedagogical principles of education of pre-school children in the inclusive education system. Science and innovation international scientific journal. Volume 2 ISSUE 11 NOVEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 |SCIENTISTS.UZ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10143278>.

IKKI KARRALI VEKTOR KO‘PAYTMA TA’RIFI VA XOSSALARI. VEKTOR ALGEBRASINING FIZIKAGA BA’ZI TATBIQLARI

Pirimov Akram Pirimovich
O‘zbekiston, NDKTU, dotsent, f.-m.f.n.,

Annotatsiya: Maqolada, ikki karrali vektor ko‘paytma ta’rifi va xossalari hamda vektor algebrasining fizikaga ba’zi tatbiqlari, “Oliy matematika” fanini xususiyatidan kelib chiqqan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida matematik qa’tiyatlik bilan bayon etilgan va ularni amaliy masalalar yechishga tatbiqlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Vector, ikki karrali, vector ko‘paytma, koordinata shakli, qattiq jism, kuch, aylanma harakat

Annotation: The article describes the definition and properties of double vector multiples and some applications of vector algebra to physics, mathematical abstractions based on information and communication technologies, based on the nature of the science of “Advanced Maths”, and their application to solving practical problems.

Key words: Vector, double, vector manifold, coordinate shape, solid, force, circular motion

Аннотация: В статье излагаются определение и свойства двумерного векторного умножения, а также некоторые приложения векторной алгебры к физике, исходя из характера дисциплины “Высшая Математика”, с математической решимостью, основанной на информационно-коммуникационных технологиях, и их применение для решения практических задач.

Ключевые слова: Вектор, удвоение, векторное произведение, координатная форма, твердое тело, сила, вращательное движение.

Ushbu $\vec{a}, \vec{b}, \vec{c}$ uch vektorni quyidagi qo‘sish ko‘paytmalarini qaraylik $\vec{a} \cdot (\vec{b} \times \vec{c})$, $\vec{a} \times (\vec{b} \cdot \vec{c})$, $\vec{a} \cdot (\vec{b} \cdot \vec{c})$ va $\vec{a} \times (\vec{b} \times \vec{c})$. Bu ko‘paytmalardan birinchisi skalyar miqdor, ikkinchisi ma’noga ega emas, chunki vektorni skalyarga vektorial ko‘paytirish amali uchunchisi \vec{a} vektorga kolleniar vector bo‘ladi oxirgisi esa hozircha nom’alum bolib, uni o‘rganaylik.